



## KORXONALARDA TIJORAT RISKI DARAJASINI PASAYTIRISHNING RISK-MENEJMENT KONSEPSIYASI

**Sharipova Gulmira Toxirovna**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0009-0009-6438-8992

[gulmsharipova@mail.ru](mailto:gulmsharipova@mail.ru)

**Annotatsiya.** Maqolada zamonaviy korxonalarda risk-menejment strategiyasini ishlab chiqish uchun ilmiy farazlar va g'oyalar, qonunlar, maqsad va vazifalar, boshqaruv tamoyillari va funksiyalarini, boshqaruvli ta'sir ko'rsatish usullari hamda metodologiyasiga oid nazariy va uslubiy masalalarni yaxlit ifodalashga qaratilgan tijorat risklarini boshqarish konsepsiyasini ishlab chiqish yoritilgan. Taklif etilayotgan risk-menejment konsepsiyasi asosida zamonaviy tijorat, tijorat menejmenti, strategik menejment va risk-menejment tushunchalarining asosiy qoidalariga asoslangan holda ularni boshqarish mohiyatini falsafiy va konseptual anglashga, tijorat risklarining vujudga kelishi mumkin bo'lgan manbalariga aniqlik kiritishga, risk-menejmentga doir ilmiy bilimlar majmuining menejment fanining turli sohalari bilan aloqadorligini, tijorat risklarini boshqarishga doir muhim g'oyalar va maqsadlarni aniqlashtirishga imkon beradigan konseptual model taklif qilingan.

**Kalit so'zlar:** tijorat riski, boshqaruv tamoyillari, tijorat menejmenti, risk-menejment, konseptual yondashuv

## КОНЦЕПЦИЯ РИСК-МЕНЕДЖМЕНТА УПРАВЛЕНИЯ СНИЖЕНИЕ КОММЕРЧЕСКОГО РИСКА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ

**Шарипова Гулмира Тохировна**

Самаркандский институт экономики и сервиса

**Аннотация.** В статье рассматривается разработка концепции управления коммерческими рисками, направленной на целостное представление научных гипотез и идей, закономерностей, целей и задач, принципов и функций менеджмента, теоретических и методологических вопросов, связанных с методами управления и методологией разработки стратегий управления рисками на современных предприятиях. На основе предложенной концепции управления рисками предложена концептуальная модель, позволяющая философски и концептуально осмыслить суть управления ими на основе основных правил современных концепций коммерческого, коммерческо-управленческого, стратегического менеджмента и управления рисками, прояснить возможные источники коммерческих рисков, прояснить взаимосвязь комплекса научных знаний по управлению рисками

**Ключевые слова:** коммерческий риск, принципы управления, коммерческий менеджмент, управление рисками, концептуальный подход.

## THE CONCEPT OF RISK MANAGEMENT REDUCING COMMERCIAL RISK IN ENTERPRISES

**Sharipova Gulmira Tokhirovna**

Samarkand Institute of Economics and Service

**Abstract.** *The article discusses the development of a commercial risk management concept aimed at a holistic presentation of scientific hypotheses and ideas, patterns, goals and objectives, principles and functions of management, theoretical and methodological issues related to management methods and methodology for developing risk management strategies in modern enterprises. Based on the proposed risk management concept, a conceptual model is proposed that makes it possible to philosophically and conceptually comprehend the essence of risk management based on the basic rules of modern concepts of commercial, commercial management, strategic management and risk management, clarify possible sources of commercial risks, clarify the interrelation of a complex of scientific knowledge on risk management.*

**Keywords:** *commercial risk, management principles, commercial management, risk management, conceptual approach.*

**Kirish.**

Jahonda biznes muhitining o'zgaruvchan kon'yunkturasi iqtisodiyot sub'ektlari taraqqiyot strategiyasining tashqi muhit omillariga tezda moslashishda nafaqat moliyaviy resurs ta'minotiga, balki risklarni boshqarish yo'nalishidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarni ham amalga oshirishni taqozo etadi. Shu boisdan ham yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalarida, ilg'or kompaniyalar faoliyatida bozor kon'yunkturasi bilan bog'liq tijorat riskini kamaytirish, optimal darajasini aniqlash asosida baholash va kamaytirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarning kengayishiga urg'u qaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik sub'ektlari uchun barqarorlik reytingini tashkil etish asosida yuqori tadbirkorlar uchun barcha soliq tekshiruvlari bekor qilish, soliq turlari bo'yicha ortiqcha to'lovlarni tezkor hisoblash, tovarlarni import qilishda va sotishda qo'shilgan qiymat solig'ini bojxona va soliq organlarida o'zaro hisobga olish imkoniyatining yaratilishi ko'p jihatdan korxonalarda tijorat riski darajasini kamaytirishga qaratilgan boshqaruv mexanizmini ishlab chiqishni, shu asosda iqtisodiy barqarorligini oshirish zaruratini keltirib chiqaradi.

**Adabiyotlar sharhi.**

Iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, tijorat riskni boshqarish metodologiyasi ko'p jihatdan tijorat riskning me'yoriy darajasini aniqlashga qaratilgan. Korxonalarni turli xatarlar va ularning salbiy ta'siri(darajasi)dan himoyalash masalalari iqtisodchi olimlar tomonidan turli ilmiy munozaralar mavjud. Jumladan, korxonani "riskdan himoya qilish" nuqtai nazaridan yondashuvi Zubova (2010) tomonidan risk-menejment konsepsiyasini korxonaning rivojlanish va barqarorlik tushunchalari bilan bog'lashga harakat qilingan. Ularning fikricha: "... korxonaning risklardan himoya qilish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning iqtisodiy rivojlanishi, ichki va tashqi tahdidlarga chidamliligi va moslashuvchanligi shunchalik yuqori bo'ladi"

Mashkov (2015) tomonidan, risklarni boshqarishga ko'proq tashkiliy-funksional jihatdan yondashilgan. "... korxonalarining tashkiliy tuzilmasida boshqaruv pog'onalari qanchalik kam bo'lsa, u tashqi va ichki muhitdagi o'zgarishlarga shunchalik tezda moslashadi, uning riskdan himoyalaniishi shunchalik yuqori bo'ladi, shu bilan birga menejerlarning riskka javobgarlik darajasi ham sezilarli darajada oshadi"

O'z navbatida, Zolotaryov, Popova va Shevchenkolar riskka immunitet tizimining asosiy parametrlari sifatida "riskbardoshlik" va "risk immunitet" ni alohida ajratib ko'rsatadi. "... korxonani risklardan himoya qilish – iqtisodiyotni tartibga solish siyosatining amaldagi

sharoitidada tashqi tomondan boshqaruvli ta'sir ko'rsatish sifatida, shu bilan birga korxonaning rejalashtirish va boshqarishga asoslangan ichki boshqaruvli ta'sir ko'rsatish orqali ham amalga oshiriladi" (*Zolotarev va boshq, 2012*).

Mamlakatimiz tadqiqotchilaridan Muxiddinov tomonidan "Xatarlarni boshqarish bo'yicha umumiy konseptual yondashuvlar sifatida xavfli vaziyatda tadbirkorlik faoliyatining mumkin bo'lgan oqibatlarini aniqlash; xavf omillari to'liq hisobga olinmagan ta'sirga yo'l qo'ymaslik, oldini olish yoki zararni kamaytirishga imkon bermaydigan choralarni ishlab chiqish" (*Muhiddinov, 2021*) kabilar ko'rsatib berilgan bo'lib, tadqiqotchi tadbirkorlikni xatarlarga moslashtirishning tizimini amalga oshirish, uning yordamida nafaqat salbiy ehtimoliy natijalarni zararsizlantirish yoki kompensatsiya qilish, balki yuqori tadbirkorlik daromadlarini olish imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish mumkinligini ta'kidlaydi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqot davomida induksiya va deduksiya, guruhlash, mantiqiy tahlil usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarini umumiy yaxlit tarzda ifodalash maqsadida jadval va rasmlardan foydalanilgan. Tadqiqot metodologiyasi gipotezaga asoslangan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Bugungi iqtisodiy sharoitlarda korxonalarda tijorat risklarini boshqarish turli xatarli vaziyatlarga o'z vaqtida tezkor va faol javob qaytarish lozimligidan kelib chiqib, tijorat risklarini boshqarishning konseptual modelini ishlab chiqish vazifasi o'ta dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tashqi muhitning murakkabligi va dinamikasi savdo korxonalarini boshqarish tizimini yaratish uchun yangi innovatsion yondashuvlar va usullarni izlashni talab qiladi. Shunday qilib, zamonaviy biznes maydonida, cheklangan resurslar va haridor uchun kurash sharoitida strategik va taktik moslashuvchanlik, maqsadlarga muvofiqligi, marketingni boshqarish qarorlarini qabul qilish samaradorligi rivojlanishning maqsadli yo'nalishlariga erishishga, yuqori samaradorlik va raqobatbardosh barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.


Tijorat risklari savdo korxonalarini boshqarish tizimining barcha jabhalariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Uning salbiy ta'siri va oqibatlarining namoyon bo'lishini eng kam darajaga keltirish uchun tijorat risklarini boshqarishning risk-menejment tizimiga zarurat mavjud, chunki tijoratga doir samarali boshqaruv qarorlari qabul qilinmaguncha risklar tufayli yo'qotish darajasi juda yuqori potensialga egadir. Korxonalarda tijorat risklarini boshqarish bilan bog'liq vazifalarining murakkabligi va serqirraligi ularni boshqarishga nisbatan yangicha konsepsiyalarni ishlab chiqish va ilmiy-amaliy jihatdan maqsadga muvofiqligini asoslash masalasini dolzarblashtiradi.

Fikrimizcha, nazariy yondashuvlar, savdo korxonalarida risklarni tadqiq etish bo'yicha izlanishlar tijorat risklarini boshqarishdagi asosiy muammolar sifatida quyidagilarga asosiy urg'u qaratish lozimligini ko'rsatdi:

- korxonalarida faoliyat samaradorligini oshirishda tijorat risklarning mohiyatini tavsiflovchi va ta'sirini baholovchi tashkiliy-funksional tuzilmaning mavjud emasligi;
- korxonalarda tijorat risklarini boshqarishning eng maqbul usullari va uslubiyatini tanlash bo'yicha yetarlicha ilmiy tadqiqotlar hamda amaliy tavsiyalarning yetarli emasligi;
- korxonalarda tijorat risklarining tarmoq, soha, tovar turi va faoliyat xususiyatiga bog'liq holda risk-menejment tizimining asosiy tamoyillarining tizimlashtirilmaganligi;
- korxonada faoliyatini rejalashtirishda tijorat risklarini boshqarishning strategik yo'naltirilmaganligi va tizimsizligi;
- strategik rejalashtirish jarayonida tijorat risklarining bo'lish jihatlari aniqlash va baholash bilan bog'liq murakkabliklar;

– savdo menejerlari va marketologlarning tijorat risklarini boshqarish sohasi vakolatlarining yetarli emasligi va shu kabilar.

Korxonaning tijorat risklarini boshqarish tizimi, har qanday tizim kabi, samarali boshqaruvni tashkil qilish va ko‘zlangan maqsadlarga erishish imkonini beradigan ma‘lum tamoyillarga tayanadi. Ushbu tamoyillarni boshqaruv tizimiga xos bo‘lgan va umumiy bo‘lgan tamoyillarga ajratgan holda tizimlashtirishimiz mumkin (1-rasm).




**1-rasm. Tijorat risklarini boshqarish tamoyillari**

*Manba: muallif ishlanmasi.*

Korxonalarda tijorat risklarini boshqarishning risk-menejment tizimining funksiyalari umumiy boshqaruv va tijorat risklarini boshqarishga oid funksiyalarining o‘zaro integratsiyalashuvi natijasida shakllanadi (2-rasm).

Tijorat risklarini boshqarishning samarali konseptual modelini ishlab chiqishda eng muhimi ushbu tushuncha mohiyatini ochib beruvchi ilmiy atamalarga, tijorat risklarni

boshqarishga doir konseptual modellarni shakllantirish, asosiy jihatlarni konseptuallashtirish, risk-menejment tizimining tarkibiy jabhalarini shakllantirish, tijorat risklarini boshqarish tizimining alohida elementlarini boshqarishning uslubiy jihatlariga aniqlik kiritish bog'liq masalalarni hal etish maqsadga muvofiq.




**2-rasm. Korxonaning risk-menejment tizimi va uning funksional vazifalari**

*Manba: muallif ishlanmasi.*

Tijorat risklarini boshqarishning konseptual modeli – tijorat faoliyati bilan bog'liq risklar, riskli vaziyatlarga oid barcha tushunchalarni o'zaro bog'lashga, kognitiv jarayonni tashkil qilishga, to'plangan nazariy va amaliy bilim va tajribalarni yaxlit va batafsil shaklda ifodalovchi konsepsiya hisoblanadi. Risklarni boshqarish o'z ichiga texnologiyalar, ishlab chiqaruvchilarning sifat boshqaruviga munosabati, talablar va ularning bajarilishi holatlari, mijozlar, shartnomalar va bozor singari jihatlarni uzluksiz nazoratini olib borish, loyihaning hayotiyliigi, logistika, resurslar va uning uchun byudjetning shakllanmasi, shuningdek uzluksiz risklarni baholash va ularni nazorat qilib borishni qamrab oladi (*Xudaynazarova, 2024*).

Tijorat risklarini boshqarish konsepsiyasi risk-menejment strategiyasini ishlab chiqish uchun ilmiy farazlar va g'oyalar, qonunlar, maqsad va vazifalar, boshqaruv tamoyillari va funksiyalarini, boshqaruvli ta'sir ko'rsatish usullari hamda metodologiyasiga oid nazariy va uslubiy masalalardan o'zaro bog'liqlik tizimi sifatida foydalanishni ta'minlab beradi. Shu bilan birga, risk-menejment konsepsiyasi tijorat risklarini boshqarish bo'yicha ilmiy asoslangan tijorat risklarini boshqarishni takomillashtirish vositalari va imkoniyatlaridan foydalanish va uni amalga oshirish bilan bog'liq muammolarni hal qilishga oid kompleks yondashuvni ham aks ettirgan holda korxonaning tijorat risklariga chidamliligini ta'minlashga yordam beradi.

Taklif etilayotgan tijorat risklarini boshqarish risk-menejment konsepsiyasi zamonaviy tijorat, tijorat menejmenti, strategik menejment va risk-menejment tushunchalarining asosiy qoidalariga asoslangan holda ularni boshqarish mohiyatini falsafiy va konseptual anglashga, tijorat risklarining vujudga kelishi mumkin bo'lgan manbalariga aniqlik kiritishga, risk-menejmentga doir ilmiy bilimlar majmuining menejment fanining turli sohalari bilan aloqadorligini, tijorat risklarini boshqarishga doir muhim g'oyalar va maqsadlarni aniqlashtirishga imkon beradi (3-rasm):



2-rasm. Korxonalarda tijorat riskini boshqarishning risk-menejment konsepsiyasi (konseptual model)

Manba: muallif ishlanmasi.



### Xulosa va takliflar.

korxonani tijorat riskidan himoya qilish – risk-menejment tizimining ichki xususiyati bo'lib, tashqi va ichki muhit omillarining salbiy ta'sirida korxonada tijorat faoliyatining eng maqbul darajasini ta'minlashga imkon beradi.

Tijorat risklarini boshqarishning samarali konseptual modelini ishlab chiqishda ushbu tushuncha mohiyatini ochib beruvchi ilmiy atamalarga, tijorat risklarni boshqarishga doir konseptual modellarni shakllantirish, asosiy jihatlarni konseptuallashtirish maqsadga muvofiq

Risk-menejment tizimining tarkibiy jabhalarini shakllantirish, tijorat risklarini boshqarish tizimining alohida elementlarini boshqarishning uslubiy jihatlariga aniqlik kiritish bog'liq masalalarni hal etish maqsadga muvofiq.

### Adabiyotlar / Literature / Reference:

Золотарёв, Ю. С. . (2012). Рискоспособность предприятия. понятие и сущность. *Bulletin of the South-Russian State Technical University (NPI) Series Socio-Economic Sciences*, (4), 205–211. извлечено от <https://vestnik.npi-tu.ru/index.php/vestnikSRSTU/article/view/386>

Зубова Л. В. (2010) Хозяйственные риски в торговом предпринимательстве // Проблемы экономики и юридической практики. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/hozyaystvennyye-riski-v-torgovom-predprinimatelstve>.

Машков Д. М. (2015). Формирование проектной системы управления рисками промышленных предприятий // Статистика и экономика. №1. <https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-proektnoy-sistemy-upravleniya-riskami-promyshlennyh-predpriyatiy>

Мухитдинов Ш. З. (2021). Тадбиркорлик субъектлариди хатарларни бошқаришнинг назарий-услубий асослари // Scientific progress. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tadbirkorlik-subektlarida-hatarlarni-bosh-arishning-nazariy-uslubiy-asoslari>

Номозова, Қ. (2024). Микросуғурта рискларни бошқаришнинг инновацион механизми сифатида. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 2(8), 338–345. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss8-pp338-345>

Худайназарова, Д. (2023). Тўқимачилик саноати корхоналарини бошқаришдаги риск ва механизмларнинг назарий асослари. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 1(2), 317–322. <https://e-itt.uz/index.php/eitt/article/view/79>